



**ILK MAKTAB YOSHI DAVRIDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI.**

Qo'qon unversiteti Andijon filiali

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Tursunboyeva Omina Xasanboy qizi

Ilmiy rahbar. Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonona

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk maktab yoshi davrida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilindi. Shaxsiy, intellektual, harakat va o'quv faoliyatiga tayyorgarlik turlari hamda ularning bola ijtimoiylashuvidagi o'rnini yoritilgan. Muloqot madaniyatini, hamkorlikda ishlash, o'zini boshqarish, jamoada moslashuv kabi ko'nikmalarning rivojlanish jarayoni zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida ko'rib chiqiladi. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, pedagogik muhit va ota-ona qo'llab-quvvatlovchining ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishiga ta'siri alohida o'rin egallaydi. Tatqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda ijtimoiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ABSTRACT. This article explores the pedagogical and psychological aspects of developing social skills in early primary school children. It examines the role of personal, intellectual, motor, and learning readiness in the process of children's socialization. The study analyzes the development of communication culture, cooperation, self-regulation, and adaptation to the school environment through modern education approaches. Special attention is given to teacher – student interactions, the influence of the pedagogical environment, and parental support. The



findings contribute to the creation of effective strategies for enhancing social skills in early childhood education.

АННОТЦИЯ. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические особенности формирования социальных навыков у детей младшего школьного возраста. Анализируются виды готовности ребенка – личностная интеллектуальная двигательная и учебная а также их роль в процессе социализации особое внимание уделено развитию культуры общения саморегуляции и адаптации к школьной среде на основе современных образовательных подходов отдельно подчеркивается значение взаимодействия учителя и ученика педагогической среды и поддержки родителей результаты исследования способствуют разработке эффективных стратегий формирования социальных навыков в начальном образовании.

Kalit so'zi: bola, ilk maktab yoshi, tayyorgarlik, intellektual rivojlanish, qo'llab – quvvatlovchi muhit, muloqot madaniyati, talablar.

Key words: child, early school age, readiness, intellektual development, support, communication culture, requirements.

Ключевые слова: ребенок, младший школьный возраст, личностная готовность интеллектуальное развитие, поддерживающий, культура общения, требования.

Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati, xususan PF-152-son prezident farmonida ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish bolalashaxsning har tamonlama rivojlanishi uchun muhim omildir. Farmonda bolalarning ijtimoiy psixologik rivojlanishining qo'llab quvvatlash, pedagogik yondashuvlarni moderinatsiya qilish. Ijtmoiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhit yaratish belgilangan.



Ilk maktab yoshi davrida shaxsining ijtimoiy rivojlanishi, uning psixologik xolati va muloqotga bo'lgan extiyoji va bevosita bog'liqdir. Ushbu davrda bola yangi maktab, sinf, jamoa bilan tanishadi. Bu jarayonda bolaning o'zini anglash, his-tuyg'ularini boshqarish, o'qituvchi va tengdoshlarga nisbatan to'g'ri munosabat o'rnatish qobiliyati shakllanadi. Bolalar maktabda muvofaqiyatli o'qishlari uchun, ularning maktabga

SHAXSIY TAYYORGARLIK bolaning o'z xulqini boshqara olish, jamoada o'z o'rnini topish va o'qishga ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. **INTELAKTUAL TAYYORGARLIK** bolaning bilish jarayonlari – taffakur, xotira, diqqat, nutq va idrok faoliyatining rivojlanishi ifodalab, o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. **HARAKAT TAYYORGARLIK** bolaning jismoniy va motor ko'nikmalarini shakllantirish, yozish, chizish va muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarish imkonini beradi. **O'QUV FAOLIYATIGA TAYYORGARLIK** esa bolaning bilish, hissiy va irodaviy jihatdan maktab jarayoniga moslashuvini ta'minlab, o'quv jarayoniga faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

Pedagog – psixolog olimlar **JABBAROVA O. M.** va **OCHILOV F. I.** fikricha, bola shaxsining har tamonlama rivojlanishida tayyorgarlik turlarining o'zaro bog'liqligi muhim omil hisoblanadi. Chunki aynan shu tayyorgarliklar asosida bola ijtimoiylashadi, jamoada muloqat qilish, hamkorlikda ishlash, ma'suliyatni his etish va o'zini boshqarish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Maktabga endigina qabul qilingan bolalarning hayoti birmuncha murakkablashadi. Ular yangi ijtimoiy muhit – sinfdoshlar jamosiga kirishish, xulq-atvorda mavjud qoidalar va cheklovlarga moslashish, o'qituvchi bilan samarali munosabat o'rnatish kabi bir qator psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shu bilan birga, o'qituvchi yangi ijtimoiy maqomga ega bo'lib, undan mas'uliyat, intizom va ta'lim jarayoniga faol munosabat talab etiladi. O'qituvchi esa



bola faoliyatini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida yangi pedagogik munosabatlarni shakllantiradi.

L. S. VIGOTSKIYning ta'kidlaganidek, bolaning individual xulq-atvori faqat jamoaviy hayot jarayonida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Faqat o'qituvchigina o'quvchiga nisbatan turli qat'iy talablar qo'yish, ularning xatti-harakatlarini baholash orqali bolaning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoit yaratishi mumkin. Bu jarayon o'quvchini huquq va burchlar tizimida o'z o'rnini topishga, ijtimoiy standartlarga moslashuviga olib keladi. O'qituvchining munosabat uslubi va pedagogik yondashuvi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligiga asosan uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollik.

Maktabga moslashuv jarayonida ota-onaning qo'llab – quvvatlashi muhim omil hisoblanadi. Bolaning portfelini yig'ish, keyingi kunga tayyorlanishi, topshiriqlarga qiziqishi bilan yondashish kabi oddiy ko'nikmalarni shakllantirish ota-onaning bevosita ishtirokini talab qiladi. O'qituvchi tamonidan berilgan topshiriqlarni farzandning imkoniyatidan kelib chiqib bajarishini tushunish, unga ruhiy ko'mak berish bolaning maktabga moslashuvini yengillashtiradi. O'qituvchilar faoliyati yaoki o'quv dasturlaridagi kamchiliklarni esa mazmuniy izohlar bo'limida keyinroq yoritish ma'qul

D.B. ELKONIN ta'kidlashicha, kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida o'quv faoliyatining yetakchi o'rin tutishi ularning ijtimoiy tajribani egallash jarayonini tezlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayoni nafaqat ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlanirishga, balki ularni ijtimoiy va shaxsiy jihatdan shakllantirishga ham qaratilgan bo'lishi lozim. Sh nuqtai nazardan, tarbiyaviy jarayonda uch asosiy talab guruhini ajratish mumkin: ijtimoiy, pedagogik va texnologik talablar. 1. Ijtimoiy talablar o'quvchilarning jamiyatga moslashuvi va



muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf bu talablar quyidagicha o'z ichiga oladi: do'stona va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish, mas'uliyat va vazifani bajarish odatini rivojlantirish, maktab qoidalari va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatish, shuningdek, o'zaro hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash. 2. Pedagogik talablar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular o'quv jarayonida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishni, yangi bilimlarga qiziqishni uyg'otishni, ularni amaliy faoliyatiga tatbiq etishni va individual xususiyatlarni hisobga olgan yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi. 3. Texnologik talablar esa ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etirish bilan bog'liq. Bu talablar interaktiv metodlar, dars o'yinlari, multimedia va audiovizual vositalardan foydalanishni, o'quv jarayonida rejalashtirish va baholashning samarali texnologik usullari qo'llashni, shuningdek, o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatib borish va moslashuvchan ta'lim shakllarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, ijtimoiy, pedagogik va texnologik talablarning uyg'unligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'liq va muvaffaqiyatli tarbiyalanishini ta'minlaydi.

XULOSA

Ilk maktab yoshi bosqichi bolalarning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Mazkur maqolada ta'kidlanganidek, bolaning maktabga moslashuvi ularning tayyorgarlik darajasi, o'qiyuvchi bilan munosabatlari va yangi ijtimoiy muhitga kirish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Shaxsiy, intellektual, harakat va o'quv faoliyatiga doir tayyorgarlik turlari bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogning talabchanligi, qo'llab-quvvatlovchi munosabati, ota-onaning kundalik nazorati va ruhiy yordami bolaning maktab hayotiga muvaffaqiyatli kirishishga yordam beradi. Vygotskiy va Elkonining ilmiy qarashlari asosida aytish mumkinki,



ijtimoiy muhit, jamoa va pedagogik yondashuvlar o'quvchilar shaxsining to'laqonli rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

ADABIYOT QO'LANMALARI

1. Jabbarova, O. M., & Ochilov, F.I.(2021). Bola shaxsining rivojlanishida tayyorgarlik turlarining o'rni. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
2. Vygotsky, L.S.(1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard university Press.
3. Elkonin, D.B.(1994). Psychology of Primary School Children. Moscow: Pedagogika Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmoni (2022). Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish choralari.
5. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy maqolalar (2020-2024).
6. Nuraliyeva N.B., Berdaliyeva G.A. umumiy pedagogika va psixologiya.- Toshkent "fan va ta'lim" . 2022.